



## HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Xudoyqulov Jamshid**

*Pedagogika, psixologiya va ta'lim  
texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi*

### O'QITUVCHI SHAXSIGA QO'YILADIGAN MUHIM TALABLAR

**Annotasiya:** ushbu maqolada o'qituvchilarga qo'yiladigan zamonaviy talablar va o'qituvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirish haqida ma'lumotlar yoritilib berilgan.

Bugungi kun o'qituvchisi o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo'llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o'zi talab etmoqda.

Ayniqsa, butun dunyoda inson qalbi va ongi uchun keskin kurash kechayotgan, tinch-osoyshta hayotimizga qarshi turli tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab va tahlikali zamonda unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizni begona va zararli g'oyalar ta'siridan saqlash, ularni irodasi baquvvat, hushyor etib tarbiyalash vazifasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda kasblar ko'p, har birining hayotga o'z o'rnini, o'z ahamiyati bor. Lekin ular orasida shunday bir ulug' kasb borki, boshqa barcha kasblar uning negizida shakllanadi va taraqqiy etadi. Bu oliyjanob kasbning nomi o'qituvchilik, murabbiylikdir.

Tabiiyki, ustoz, muallim deganda, har qaysi inson ko'nglida chuqur hurmat ehtirom va cheksiz minnatdorchilik tuyg'ulari, shu bilan birga hiech qanday boylik bilan o'lchab, ado qilib bo'lmaydigan qarzdorlik hissi paydo bo'ladi. Shuning uchun



ham ezgulik bunyodkori bo'lgan, o'qituvchi murabbiylarimizni har qancha tahsin va tasanno aytsak, arziydi.

Zamonaviy pedagogika nafaqat o'qitish, tarbiyalash bilan ta'limni shaxs qobiliyatlarini namoyon qilishga yo'naltirish, kishining intellektual va ma'naviy rivojlanish imkoniyatlarini jamiyatning shaxsga qo'yayotgan, ijtimoiy jihatdan taqozo etilgan talablarga javob berishi, ularni o'qishga, bilimga bo'lgan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib, har tomonlama rivojlanishga ko'maklashadi. Zamonaviy pedagogikani aynan shu tarzda tushunmoq lozim.

O'qituvchining ko'pqirrali va murakkab faoliyat zaminida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi.

Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbini sevishi, o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi o'qituvchini boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Chunki maktabda ta'lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi faqat o'qituvchiga, uning kasbiy tayyorgarligiga bog'liq.

O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'zi o'qitayotgan predmetlarni chuqur bilishi, uning metodikasini o'zlashtirib olgan bo'lishi zarur. Predmetni va uning nazariyasini chuqur bilishi, bolalarni shu predmetga bo'lgan qiziqishni oshiradi. O'qituvchi obro'sini ko'taradi o'quvchilar. O'qituvchi o'z bilimini bolalarga yetkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki uning shu predmetga bo'lgan qiziqishini, uning fidoyiligini ham taqdirlashadi.

O'qituvchining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi (ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xalqimizni o'z tarixini, madaniyatini, urf-odatini o'rganishga, bilishga bo'lgan qiziqishi ortib borayotgan davrda) ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi milliy qadriyatlarimizni bilishi bilan birga, uni otanonalar o'rtasida keng targ'ibot qilishi ham kerak.

O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlardan, talablaridan biri – bolalarni sevish, ularning hayoti bilan qiziqish, har bir shaxsni hurmat qilishdan iboratdir.

Bolani sevgan, butun kuch va bilimni bolalarni kelajagi buyuk Vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy o'qituvchi bo'la oladi. Bolaga befarq, uning kelajagi bilan qiziqmaydigan, o'qituvchilik kasbiga loqayd odamni haqiqiy o'qituvchi deya olmaymiz.

O'qituvchining nutqi ravon xalq tili boyligi, ifoda uslubi va me'yorini to'la egallagan bo'lishi zarur.

O'qituvchilik kasbiga bo'lgan bunday fazilatlarni undagi pedagogik odob shakllantiradi. U o'qituvchining sabotli bo'lishiga, o'z hissiyotini idora qila olishga, bolalarga pedagogik ta'sir o'tkazish vosita va me'yorlarini belgilash, aniqlashda yordam beradigan fazilat hisoblanadi.

O'z xizmati xususiyatiga ko'ra o'qituvchi tashkilotchilik fazilatiga ham ega bo'lmog'i lozim.

Buning uchun o'qituvchi har doim tetik, g'ayratli, o'z kuchi va imkoniyatiga ishongan bo'lmog'i zarur.



Tashabbuskor va g'ayratli o'qituvchi bolalarni o'z orqasidan ergashtira oladi, o'quvchilar unga ergashadi.

O'qituvchilik kasbi juda katta ruhiy va jismoniy kuch talab etadi, shuning uchun o'qituvchining salomatligiga ham ma'lum talablar qo'yiladi.

O'qituvchi shuningdek anatomiya, fiziologiya, maktab gigiyenasi fanidan xabardor bo'lmog'i, o'z nutqini idora qilishga, adabiy nutq me'yorlarga rioya qilishi, ovozning baland-pastligiga ahamiyat berishi (ortiqcha baland ovoz bilan gapirish ham, sekin gapirishi ham bolalarni charchatib qo'yadi) nutqning jonli, ifodali bo'lishiga e'tibor berishi; bolalarni charchatib qo'ymaslik maqsadida darsda ish turlarini tez-tez o'zgartira olish va ularga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga yordamlashishi kerak.

Xulosa qilib aytish lozimki hozirgi zamon o'qituvchisi nafaqat iste'dodli notiq va bilimdon bo'lishi, shu bilan birgalikda o'z kasbiy mahoratini tinmay oshirib borishi hamda shu sohada boshqalar bilmaydigan narsalarni mukammal bilishi lozim. Faqat shundagina o'quvchilar qalbida bilim olish ishtiyoqini o'yg'ota olishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sayidaxmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T., O'zMU
2. Ibragimov X. I va boshqalar. Pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2007 y.
3. Xo'jayev N. va boshqalar. Pedagogika asoslari. – T.: 2003. -120 bet
4. <http://www.edustorng.ru/main/book/pedagogtechno.htm>